

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi
№ _____
“___” ____ 2022 y.

“Tasdiqlayman”
O'quv ishlari prorekitori
_____ O.N.Bozorov
“___” ____ 2022 y.

**AMALIY GEOGRAFIYA
FANI SILLABUSI**

Bilim sohasi: **700 000** – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari

Ta'lif sohasi: **720 000** – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari

Ta'lif yo'nalishlari: **60722800** – Kadastr (ko'chmas mulk kadastro)

Ushbu fan sillabusi o‘quv reja, ishchi o‘quv reja va fan dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchi:

N.Ernazarova. –“Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar:

T.Bobonazarov «O‘zdaverloyiha» DILI Qashqadaryo bo‘linmasi bosh muhandisi

K.Xujakeldiyev QarMII, “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasi dotsenti

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasining 2022 yil ____ ____ dagi __ son yig‘ilishida hamda “Geologiya va konchilik ishi” fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil ____ ____ dagi __ son yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil ____ ____ dagi __ son yig‘ilishi qarori bilan o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O’quv uslubiy boshqarma boshlig’i:

Sh.R.Turdiyev

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi:

M.M. G’ofirov

Kafedra mudiri:

G‘.N.Aliqulov

“Amaliy geografiya” fani sillabusi

Fan (modul) kodi AGOE 1209	O‘quv yili 2022-2023	Semestr 2	ECTS krediti 4
Fan (modul) turi Majburiy	Ta’lim tili o‘zbek		Haftalik dars soati 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim	Jami yuklama
« Amaliy geografiya »	60	60	120
2-semestr	60	60	120

O‘qituvchi haqida ma’lumot

Kafedra nomi	Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish		
O‘qituvchilar	F.I.SH.	Telefon nomeri	e-mail
Ma’ruzachi	Irnazarova Nilufar	+998973165571	Irnazarova N @gmail.cmo
Amaliy mashg‘ulot	Irnazarova Nilufar	+998973165571	Irnazarova N @gmail.cmo

I.Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda geografiyaning bevosita amaliyot bilan bog‘liq soxalari haqida bilim va ko‘nikmalar berishdan iborat bo‘lib fanlarining nazariy asoslari, vazifasi va usullari, ish olib boriladigan maydon yoki hududning geologik sharoiti, relyefining tuzilishi, turlari va uning o‘zgarishiga sababchi bo‘lgan omillar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakillantirishdir.

Fanning vazifasi - geografiyaning asosiy yo‘nalishlari va tadqiqot uslublarini, aholi va xo‘jalik tuzilishini to‘g‘ri tashkil etish maqsadlarida olib boriladigan landshaft tadqiqotarining ilmiy asoslarini, injener va geografik shaharsozlik yo‘nalishlarida amaliy geografiyaning usul va uslublarini qo‘llash yo‘llari haqida tegishli bilimlarni o‘rgatishdan iborat.

II. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- talabalarga turli injenerlik inshootlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanish jarayonida amalga oshiriladigan geografik muhit va sharoitini tahlil qila olishni, tarkibi qo‘llaniladigan usullar mohiyati va geodezik asboblarni amaliyatga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat nazariyalari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi***;

-kadastr sohasida barcha ishlar geodezik o‘lchash ishlariga asoslanganligi, geografik sharoitini tahlil qila olishni, texnik va iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri bajarish va o‘lchov ishlari natijalarini matematik qayta ishlash alohida ahamiyatga egaligi, va nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, injenerlik inshootlarining asosiy tiplari uchun samarali geodezik tarmoqlarni ilmiy asoslangan sxema va dasturlarini barpo etish, injenerlik inshootlarini qidiruvini bajarish, rejlash va to‘g‘rilash uchun fan va texnikani yangi yutuqlariga asoslangan, eng samarali usullar va asboblarni ishlab chiqish hamda yirik injenerlik inshootlarini qurishda yig‘ilgan mamlakatimizdagi va chet ellardagi geografik sharoitini tahlil qila olishni, tajribalarni umumlashtirish va talablarga amalda tadbiq etishni o‘rgatishdan iborat.

III. Ta’lim texnologiyalari va uslublari

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihibar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihibar.

Yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o‘zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e’tibor auditoriya mashg‘ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o‘zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob’ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma’ruza mashg‘ulotlariga katta o‘rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o‘zlashtirish to‘rt xil:

- muammoli mavzular bo‘yicha;
- mustaqil o‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan bo‘limlar bo‘yicha;
- ta’lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg‘otuvchi bo‘limlar bo‘yicha;
- ma’ruzalarni interfaol usulda o‘qitish yo‘li bilan;
- mustaqil ta’lim olish va ishlash, kollekviumlar va munozaralar jarayonida o‘zlashtiriladigan bilimlar bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va meyoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya

mashg‘ulotlari paytida qabul qilingan ma’lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko‘rsatishi zarur.

Fanni o‘zlashtirishda masofadan o‘qitish (modul platformasi), darslik, o‘quv qo‘llanmalari va ma’ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma’ruzalar o‘qish, video-audio mashg‘ulotlar va elektron resruslar (Internet tarmog‘i orqali) dan foydalilanildi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o‘quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

IV. Fan tarkibi (ma’ruza mashg‘ulotlari)

№	Mavzular	Qisqacha mazmuni	soat
2-semestr			
1	Geografiya fani, predmeti, tadqiqot obyekti. Fanning maqsadi va vazifalari	Geografiya fani, predmeti, tadqiqot obyekti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O‘quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog‘liqligi.	2
2	Amaliy geografiyaning metodologik asoslari	Amaliy geografiyaning ilmiy yo‘nalishlari va tadqiqot metodlari. Tabiat – aholi – xo‘jalik tizimi tuzilishidagi o‘zaro ta’sir va aloqadorliklar. Tabiiy va ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari.	2
3	Amaliy geografiyaning ilmiy yo‘nalishlari	Qishloq xo‘jalik maqsadlarida olib boriladigan landshaft tadqiqotlari. Qishloq xo‘jalik maqsadlarida tabiiy geografik rayonlashtirish. Meliorativ tadbirlarni loyihalarini asoslash uchun tabiiy-meliorativ rayonlashtirish. Landshaft-eroziya jarayonlarini rayonlashtirish. Tabiiy geografik komplekslarni o‘zlashtirish va sug‘orish uchun kompleks baholash. Rayon	2

		planirovkasi, geografik ekspertiza, geografik prognoz va b.	
4	Muhandis - geografik yo‘nalishi	Sanoat korxonalarini joylashtirishda amaliy geografiyaning roli va ahamiyati. Injener-geografik va gidrogeologik izlanishlarda landshaft-indikatsiya metodi. Foydali qazilma konlarini izlash ishlarida landshaft-geokimyoviy izlanishlar. Landshaft arxitekturasi. Yo‘l qurish, shahar qurilishi nuqtai nazaridan tabiiy geografik rayonlashtirishlar.	2
5	Tibbiy geografik tadqiqotlar	Inson-tabiatga ta’sir etuvchi asosiy omil sifatida. Inson ta’sirida tabiiy muhitning o‘zgarishi. Atrof-muhit va inson salomatligi. Kasalliklar o‘choqlari tabiatni. Tibbiy landshaftshunoslik.	2
6	Ekologik muammolarni hal etishda amaliy geografiya	Iqlim o‘zgarishi. Cho‘llanish jarayoni. Dunyo okeanining ifloslanishi. O‘rmon ekosistemalari, ularning hozirgi ahvoli va istiqbollari. Dunyoviy ekologo-geografik muammolar va ularni yechish yo‘llari. Regional ekologo-geografik muammolar.	2
7	Yer va suv resurslaridan foydalanishda amaliy geografiya	Yer resurslari va ularning turlari. Tuproq bonitirovkasi. Suv resurslari va ularning tarqalishi. Yer va suv resurslarini loyihalash va oqilona foydalanishda landshaft tahlili, havzaviy yondashuv.	2

8	Shamolning geologik ishi.	Geografik bashorat va bashoratlashtirish. Tabiiy geografik bashoratlashtirish prinsiplari va metodlari. Bashoratlashtirish bosqichlari. Geotizimlar taraqqiyotini prognozash. Bashoratning muddatliligi va ko‘p variantliligi. Global geografik bashoratlar. Regional va mahalliy geografik bashoratlar.	2
9	Sanoat korxonalari, aholi punktlarini iqtisodiy geografik jihatdan o‘rganish.	Muhandis-geografik tadqiqotlar. Muhandislik inshoatlari va ularning turlari. Iqtisodiy rayonlar va ijtimoiy infratuzilmani iqtisodiy geografik jihatdan o‘rganish. Sanoat korxonalarini joylashtirishda amaliy geografiyaning roli va ahamiyati. Sanoat tarmoqlari va ularning joylashtirish xususiyatlari. Erkin iqtisodiy zonalar. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma.	2
10	Hududiy ishlab chiqarish majmualari va klasterlar	Hududiy majmualar geografiya fanining asosiy tushunchalaridan biri. Hududiy majmualarning turlari. Hududiy ishlab chiqarish majmulari. Energiya ishlab chiqarish siklig‘oyasining amaliy ahamiyati. Klasterlar va ularning turlari.	2
11	Tabiiy sharoit va resurslarni xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari nuqtai nazaridan baholash	Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar, ularning hududiy birikmalari. SWOT – tahlil usuli va undan foydalanish. Baholashning prinsiplari va metodlari. Baholash mezonlari.	2
12	Qishloq joylar geografiyasi, qishloq	Qishloq xo‘jaligida agroiqlimiylar resurslarni baholash. Agroiqlimiylar	2

	xo‘jaligida agroiqlimiylar resurslarni baholash.	resurslar; tuproq, namlik, harorat va ularning geografik xususiyatlari. Agrogeografik rayonlashtirish. Vegetatsiya davri ijobiy harorat yig‘indisi va uning hududiy farqlari.	
13	Tabiy resurslardan foydalanish va geoekologik muammolar	Tabiiy sharoit va tabiiy resurs tushunchalari. Tabiiy resurslar turlari va ularning tarqalishi. Tabiatdan foydalanishning geotizimlarga ta’siri va geoekologik muammolarning kelib chiqishi. Geoekologik muammolar, ularning oldini olish va bartaraf etish tadbirlari.	2
14	Geografik ekspertiza.	Geografik ekspertizaning mohiyati va maqsadi. Qurilgan yoki qurilishi mo‘ljallangan obyektlarni geografik jihatdan ekspertiza qilish. Geografik bilim, geografik fikrlash va geografik madaniyat.	2
15	Geografik bashorat.	Bashorat (prognoz) qilish tamoyilari va metodlari geografik bashorat va kartografiya. Demografik bashorat, uning muddatlari va aniqligini belgilovchi omillar. Geografik modellashtirish, maqsadli dasturiy yondashuv. Geografik bashoratda geotizim va hududiy-majmualardan foydalanish.	2
JAMI.			30

Amaliy mashg‘ulotlar

Nº	mavzular	soat
	2-semestr	

1	Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar hamda xo‘jalik tarmoqlarining hududiy tarkibidagi o‘zaro aloqadorliklarini tahlil qilish.	2
2	O‘zbekistonning u yoki bu tabiiy geografik okrugi yoki birorta daryo vodiysi tabiiy sharoitini tahlil qilish.	2
3	Agrogeografik tadqiqotlarni hisobga olishning regional va mahalliy bashoratlari.	2
4	Muhandis-geografik yo‘nalish bo‘yicha hududni baholash va yer kadastro.	2
5	Relyef, tog‘ jinslari (litologiya), yer osti va usti suvlari, tuproq, o‘simlik va boshqalarni, landshaft kartalarini tuzish va ulardan xo‘jalik nuqtai nazardan foydalanishni o‘rganish.	2
6	Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar o‘zgarishini bashorat qilish.	2
7	Suv resurslari, muhofazasi va ulardan samarali foydalanish masalalari.	4
8	Geografik ekspertiza va geoekologiya.	2
9	O‘zbekiston ekologik kartasini tahlil qilish.	2
10	Xalq ho‘jaligiga ta’sir etadigan tabiiy geografik jarayonlar tavsifi.	2
11	O‘zbekistonda erkin (maxsus) iqtisodiy zonalar (Angren, Jizzax, Navoiy) tavsifi.	4
12	Sanoat korxonalarini joylashtirishning shart-sharoitlarini baholash.	2
13	SWOT – tahlili usuli va undan foydalanish.	2
14	Ekstropolyatsiya usuli va demografik prognozlash (tanlangan hudud misolida).	2
15	Yangi qurilayotgan korxonalarni geografik ekspertizasi.	2
	JAMI	30

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor- o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

V. Mustaqil ta’lim va hisob - grafik ishlar.

Mustaqil ta’limni bajarish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:

Talaba fandan mustaqil ta’limni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi va joriy nazorat sifatida baholanadi:

- mavzular bo‘yicha konspekt (referat, taqdimot va injenerlik inshoatlarini loyha syomka)larini tayyorlash. Nazariy materialni puxta o‘zlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o‘quv materialiga diqqatni ko‘proq jalb etishga yordam beradi;
- o‘qitish va nazorat qilishni avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishslash. Talabalar ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar davomida olgan bilimlarini o‘zlashtirishlari, turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun tavsiya etilgan elektron manbalar va boshqalar;
- fan bo‘yicha qo‘srimcha adabiyotlar bilan ishslash. Mustaqil o‘rganish uchun berilgan mavzular bo‘yicha talaba tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘srimcha o‘quv, ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda rus va xorijiy tillardagi adabiyotlaridan foydalanish rag‘batlantiriladi;
- internet tarmog‘idan foydalanish. Fan mavzularini o‘zlashtirish uchun mavzu bo‘yicha internet manbalarini topish, ular bilan ishslash nazorat turlarining barchasida qo‘srimcha reyting ballari bilan rag‘batlantiriladi.

V I. Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar.

Fan bo‘yicha laboratoriya ishlari namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan.

V II. Kurs ishini tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar.

Fan bo‘yicha kurs ishi namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan.

V III.. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Amaliy geografiyada tanlangan asosiy ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha mustaqil tadqiqot olib borish
2. Shahar qurilishi va amaliy geografiya
3. Amaliy geografiyada injener-geografik tadqiqotlarning ahamiyati
4. Amaliy geografiyada landshaft tadqiqotlari
5. Tibbiy geografik izlanishlar
6. Umumiy geografik qonunlar va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish
7. Amaliy geografiya va modellashtirish

8. Amaliy geografiya va turizm
 9. Amaliy geografiya va melioratsiya
 10. Ayrim hududlarning tabiatи va tabiiy resurslarini muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish
 11. Geografik okrug yoki rayonlarning xalq xo‘jaligining u yoki bu tarmog‘ini rivojlantirish nuqtai nazaridan geografik ekspertizani tuzish
- Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Kurs ishi va uni bajarish bo‘yicha ko‘rsatma hamda tavsiyalar

O’quv rejalarida kurs ishi (loyiha) kiritilmagan

VII. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma’ruza mashg‘ulotlarini ma’ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma’ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish va o‘zlashtirish mashg‘ulotlarga to‘liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta’lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo‘yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo‘yicha talabalabalar test usulida oraliq nazorat va og‘zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTVning 2018 yil 9 avgustdagи 9-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom” asosida baholanadi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a’lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimini baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib bormagan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o‘zlashtirgan talabalabarga tegishli ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) o‘quv rejasida ushbu fanga ko‘rsatilgan kredit beriladi.

Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarini to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha og’zaki yozma va (test) ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar:

1. Baratov R. "O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar". Toshkent "Cho'lpon", 2005 y.
2. Tojiyeva Z.N. "Aholi geografiyasi". Toshkent "Noshir", 2019 y
3. Soliyev A., Qarshiboyeva L. "Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari".-T.: Ziyo, 1999.
4. Isachenko A.G. "Optimizatsiya prirodnoy sredi". M, Misl, 1980
5. Baburin V.A., Mazurin Y.L. "Geograficheskiye osnovi upravleniya".-M.: Delo, 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Gerasimov I.P." Konstruktivnaya geografiya". - M.: Nauka, 1976.
2. Preobrajenskiy V.S." Poisk v geografii. "- M.: Prosvesheniye, 1986.
3. Isachenko A.G. K "Metodike prikladnix landshaftnix issledovaniy". Izv. Vsesoyuzn. Geogr. Obshestva. 1972, T. 104 vip. V, s 417-420
4. Isachenko A.G. "Prikladnoye landshaftovedeniye". M.: MGU, 1976 152 str.
5. Nikolayev V.A." Landshafti aziatskix stepey". M.; 1999.
6. Goudie A. Physische Geographie. Munxen. «Westerman» 1997.
7. Nigmatov A.N. Yusupov R. «Tabiiy geografik komplekslar va ekzogen jarayonlar.» T.: Turon iqbol, 2006
8. Xasanov I.A.» Otsenka prirodnykh territorial'nix kompleksov karshinskoy stepi dlya orositel'noy melioratsii». T.: «Fan» 1981.

Axborot manbalari

1. www.lex.uz–O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. <http://www.Ziyo.net>
3. <https://t.me/axborotnama> jurnali
4. <http://www.landkadast.com>
5. <http://www.gisinfo.ru/edu/edu.htm>
6. www.gwpcacena.org

